(3). Gee J.P. An introduction to discourse analysis. Theory and practice. Routledge, 2005, p. 209.
(4). Manaenko G.N. Nutq, matn va til bilan bog'liq nutq. Til. Matn. Nutq. Universitetlararo nashr. 1. Stavropol; Pyatigorsk. PGLU, 2003. 26–40-betlar.
(5). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.
(6). Schiffrin D. Approaches to Discourse. Oxford, Cabridge, MA, 1994.
(7). Shukurov U.I. Siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi. Filol.fan.dissert.avtoref., Andijon, 2023.
(8). Zellig S.Harris. Discourse analysis (journal article). Linguistic society of America, 1952.
(9). Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990.
(10). Демьянков В.З. Теория интерпретации в прикладной лингвистике. Проблемы вычислительной лингвистики и автоматической обработки текста на естественном языке. М., МГУ, 1980, с. 125–158.
(11). Пардаев А. Сўз таърифи хусусида. «Интернаука», научный журнал, часть 2, Москва, 2017, № 11(15).

Abduraxmanova Madina Ulugbekovna (ADCHTI 1-kurs doktoranti; lady.abdurahmanova@bk.ru)

DISKURS ILMIY REFLEKSIYALARNING OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada diskurs tushunchasining ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan. Diskurs va matn o'rtasidagi tafovutlar aniqlangan. Milli va xorijiy tilshunos olimlarning bu ikki tushuncha borasidagi qarashlari tadqiqi amalga oshirilgan. Diskurs ijtimoiy-faoliyatli xarakterga ega ekanligi, kognitiv tabiatga egaligi, lisoniy va lisoniy bo'lmagan omillarning ta'sirini aks ettirishi, kommunikativ xilma-xilligi va o'zgaruvchanligi bilan ajralib turishi haqida mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *diskurs, matn, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya.*

Абдурахманова Мадина Улугбековна (докторант 1-курса АГИИЯ; lady.abdurahmanova@bk.ru)

ДИСКУРС КАК ОБЪЕКТ НАУЧНЫХ РЕФЛЕКСИЙ

Аннотация. *В данной статье проанализированы научные подходы к понятию дискурса. Определены различия между дискурсом и текстом. Проведено исследование взглядов отечественных и зарубежных лингвистов на эти два понятия. Высказаны соображения о том, что дискурс имеет социально-деятельностный характер, когнитивную природу, отражает влияние лингвистических и нелингвистических факторов, отличается коммуникативным разнообразием и изменчивостью.*

Ключевые слова: дискурс, текст, лингвистика, культурология, психология.

Abdurakhmanova Madina Ulugbekovna (1-year doctoral student at the ASIFL; lady.abdurahmanova@bk.ru)

DISCOURSE AS AN OBJECT OF SCIENTIFIC REFLECTION

Annotation. *This article analyzes scientific approaches to the concept of discourse. The differences between discourse and text are defined. A study of the views of domestic and foreign linguists on these two concepts has been conducted. Considerations are expressed that discourse has a socio-activity character, cognitive nature, reflects the influence of linguistic and non-linguistic factors, and is characterized by communicative diversity and variability.*

Keywords: *discourse, text, linguistics, cultural studies, psychology.*

Kirish. Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya va bir qator shu kabi bir-biriga bog'liq fanlar negizida paydo bo'lgan diskursni tushunishda, eng avvalo, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish zarurdir. Dastavval, diskurs va matn o'rtasidagi tafovutga to'xtalish darkor.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Diskurs va matn tushunchasi an'anaviy ravishda ongli amallar bilan bog'liq hisoblangan, shuningdek, kognitiv jarayonlar realizatsiyasi natijalarini til tizimi belgilari yordamida mustahkamlashga ehtiyoj sanalgan. U yoki bu matnlar madaniyatni, qadriyatlarni, an'analarni bir avloddan keyingi avlodga yetib borishi va saqlanishidagi asosiy vositalardandir. Matn – bu terminning an'anaviy tushunilishi bo'yicha "aloqa, moslashish" degan ma'nolarni anglatadi. Matn bu barcha gumanitar-falsafiy qarashlarning birlamchi omili bo'lib, tafakkurning hech narsaga bog'liq bo'lmagan haqiqatidir [1]. M.M.Baxtinning aynan mana shu konsepsiyasi tilshunoslikda matn tushunchasiga asos bo'ldi va XX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshladi. Matn tushunchasi borasida o'nlab ta'riflar keltirilgan bo'lib, ular turli-tuman yondashuvlar bilan amalga oshirilgan. L.G.Babenko, I.Y.Vasilyev va Y.V.Kazarin ta'kidlashlaricha, matnning umumqabul qilingan ta'rifi yo'q. Turli olimlar bu xodisaga turlicha ta'rif beradilar. D.N.Lixachev matnda qandaydir g'oya ilgari suriladi, deydi [2]. O.L.Kamenskaya, matnning asosiy roli verbal kommunikatsiya vositasidaligidir, deydi [3]. A.A.Leontyev, matn bu nutqiy hosilaning funksional tugallanganligi, deydi [4]. I.R.Galperin matnning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir deydi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Matnni tushunishga bo‘lgan turli yondashuvlarni o‘rganib, xulosa qilish mumkinki, matn “turli tipdagi lisoniy, mantiqiy va grammatik aloqalar bilan bog‘langan tartibga solingan ko‘plab gaplar yig‘indisi bo‘lib, u muayyan usullar bilan tashkillashtirilgan va yo‘nalgan axborotni yetkazuvchi” yaxlit bir butunlikni hosil qiluvchi mualliflik hosilasi, belgilarning izchilligi (til yoki boshqa belgilar tizimida)dir [6]. Nutqiy ijodiy jarayonlarning yakuniy natijasi bo‘lib, yozma hujjat ko‘rinishida o‘z aksini topuvchi, grammatik, mantiqiy va uslubiy bog‘liqlikka ega, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan va pragmatik yo‘nalishga ega bo‘lgan natijadir.

Shunday qilib, matnni murakkab, tugallangan bir butunning modeli sifatida qabul qilish mumkin. Matnning zamonaviy talqinida kommunikativ xususiyatga ega bo‘lgan masalalar, ya’ni, yaratiladigan matn birliklarining bir ma’noli ta’rifini ta’minlaydigan ratsional (asoslangan) kommunikatsiya sharoitlarini tahlil qilish oldingi planga qo‘yiladi. Har qanday jamiyat madaniyatining muhim elementi bo‘lgan, ushbu jamiyatda faoliyat yurituvchi nutq uning “konteksti”da sodir bo‘ladigan ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta’sir qiladi.

Ko‘rsatilgan individual ijodkorlik va ijtimoiy-madaniy muhit sintezi matndan ko‘ra kengroq kategoriya bo‘lgan diskurs kategoriyasini shakllantiradi.

“Diskurs” tushunchasi XX asrning 60-yillari oxirida tilshunoslarning ishlarida o‘z dolzarbligini topdi. Milliy lingvistik maktabdan yoki nazariy yo‘nalishidan qat’i nazar, ko‘p olimlar “diskurs” tushunchasini nutqqa aloqador bo‘lgan tadqiqotlarni o‘rganish va tavsiflash uchun qo‘llashadi. Diskur borasidagi tadqiqotlar ko‘p yillardan buyon davom etayotgan bo‘lishiga qaramasdan, ushbu ilmiy tushunchaga yakdil ta’rif mavjud emas. “Diskurs termini qo‘llanish doirasiga ko‘ra mashxur bo‘lsa-da, aniq ta’rifga ega emas, chunki matnlar yig‘indisi sifatida ham (P.Serio), nutq sifatida ham (N.D.Arutyunova, Y.S.Kubryakova), mentalitetning muayyan turi sifatida (Y.S.Stepanov) va muloqot vaziyatida nutq sifatida ham ta’riflanadi” [7].

Diskurs bu, eng avvalo, o‘ziga xos grammatikaga, so‘z boyligiga, o‘ziga xos so‘z tuzilishi va sintaksisga, semantikaga o‘zgacha dunyoga ega bo‘lgan matnlarda mavjud bo‘ladigan “tildagi tildir [8]. Ushbu ta’rif diskursning kommunikativ mohiyatini ta’kidlaydi, uni kommunikativ hamkorlikning hosilasi sifatida ko‘rib chiqadi, ammo e’tiborni aynan ana shu kommunikativ hamkorlikning o‘ziga hosliklariga qaratadi.

I.A.Yevstigneyevaning ta’rifiga ko‘ra, “diskurs muayyan makonda, vaqtda va boshqa kontekstlarda qaysidur kommunikativ harakat jarayonida kommunikantlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan muloqot hodisasidir” [9]. Shunga muvofiq, matndan farqli o‘laroq, diskurs, makon-vaqt kontekstida ko‘rib chiqiladi, kommunikativ munosabatning kechishida kontekst ta’siri bilan asosolanuvchi xususiyatlarga ega deb hisoblash mumkin

N.D.Arutyunovaning ta’kidlashicha, diskurs bu “hayotga singib ketgan nutq” [10], demak, hayotimizning kechishi kabi, muloqotning borishi ham har xilligi bilan tavsiflanadi, diskursning o‘zi esa vaziyatlar bilan bog‘liq kontekstlar ta’sirida o‘ziga xosliklarga ega bo‘ladi.

A.P.Kryachkova diskursni “turli xil til birliklari va standart nutqiy harakatlarning funksiyalari va semantikasi o‘zgarishi sodir bo‘ladigan o‘ziga xos belgilar tizimi” deb tushunadi [11]. Ushbu ta’rifda asosiy e’tibor o‘zaro hamkorlining kechishi shartlari ta’sirida muayyan lisoniy vositalarning sezilarli o‘zgarishga uchrashiga qaratilmoqda.

Diskurs – bu “muayyan shaxsning kognitiv faoliyati natijasi” [12], lingvistik hamda ekstralingvistik komponentlarni o‘z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisa. Bir tomondan, diskurs muloqotning yuzaga kelishi va qabul qilinishi sharoiti bilan, boshqa tomondan, uning ishtirokchilari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning dunyoqarashini, niyatlarini, qarashlarini va tajribasini aks [13]. Shuning uchun diskurs psixologik, sotsiomadaniy, pragmatik va boshqa omillar bilan birga ko‘rib chiqiladi. Vaziyatli kontekstlarni va tegishli diskurs turlarini bilish shaxsning vaziyatga mos xulq-atvorini ta’minlaydi, qo‘yilgan maqsadga erishishiga va muloqotning muvafaqqiyatli kechishiga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, keltirilgan ta’riflar tahlili asosida, diskurs murakkab kommunikativ hodisa, amalga oshirishda ham lingvistik, ham ekstralingvistik omillarga asoslanadigan, kommunikantlarning o‘ziga xosliklari, o‘zaro munosabati va aynan qanday vaziyatda muloqot sodir bo‘layotganligiga asoslanadigan kommunikatsiyaning bir turi sifatida tushunilishi mumkin. O‘zaro hamkorlikning borishi, o‘ziga xosligi natijasida diskursning kommunikant shaxsiga, kontekstga va boshqa shu kabi omillarga bog‘liqligi kabi farqlari shakllanadi.

Bu kabi yondashuv amalga oshirilishi orqali matn va diskurs kategoriyalarini farqlash imkoni paydo bo‘ladi: agar diskurs nutq faoliyatining jonli, variativ, doimiy o‘zgarib turuvchi jarayoni bo‘lsa, shu bilan bir qatorda, lingvistik va ekstralingvistik omillarga asoslanadigan xilma-xil muloqot munosbatlari deb qaralsa, matn ushbu jarayonning bir natijasi “maxsuloti” deyish mumkin (ya’ni matn diskursning bir qismi

hisoblanadi) [14]. Yevropada diskursning asoschilaridan biri bo‘lgan T.A.Van Deyk “matn” va “diskurs” tushunchalari o‘rtasida aniq farq bor deb hisoblaydi: “Diskurs – amalda aytilgan matn, “matn” esa aytilganning abstract grammatik tuzilishidir. Diskurs – nutqga tegishli tushunchadir <...>, “matn” esa til tizimiga yoki aytilganning formal lingvistik bo‘limlariga, lingvistik kompetensiyaga tegishli tushunchadir” [15].

L.V.Tsurikovaning ta’kidlashicha, til faoliyatining qonuniyatlarini o‘rganar ekan, tadqiqotchi har doim “mahsulot” bilan, bu faoliyatning natijasi bilan ishlaydi, biroq tadqiqotchi bu “mahsulot”ni faqatgina muloqot ishtirokchilari tomonidan uning yaratilishi va qabul qilinishi xususiyatlari nuqtayi nazaridan yoki uning avtonomligi, yaxlitligi, nutq yaratishning yakuniy natijasi, ushbu natijani shakllantirishda ishtirok etgan lingvistik vositalarmajmuasi nuqtayi nazaridan o‘rganishi mumkin. Shunga ko‘ra, birinchi holda u diskurs bilan, ikkinchi holda esa matn bilan ishlaydi [14].

Diskursni tashkil etishga quyidagilar ta’sir ko‘rsatadi:

–gapiruvchini nutq faoliyatini amalga oshirishga undovchi motiv, maqsadlar, niyatlar;

–kommunikativ vaziyatni tahlil qilish, bu esa muloqot joyini, vaqtini va boshqa sharoitlarini hisobga olishni, adresat modelini yaratishni (uning ijtimoiy maqomini, tanishlik darajasini, kasbini, yoshini, etnik mansubligini, bilimini, adresat haqidagi tahminiy taassurotlarini va psixologik jihatlarini hisobga olishni) nazarda tutadi, ya’ni vaziyat psixologik, ijtimoiy-madaniy va etnografik darajalarda tahlil qilinadi;

–xotirada mavjud bo‘lgan vaziyatli modellarga, ijtimoiy hodisalarga muvofiq keladigan kontekstual vaziyatning kognitiv obrazini yaratish.

Boshqacha qilib aytganda, diskurs ijtimoiy-faoliyatli xarakterga, kognitiv tabiatga ega, lisoniy va lisoniy bo‘lmagan omillarning ta’sirini aks ettiradi, kommunikativ xilma-xilligi va o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

Diskurs doirasida ko‘plab o‘lchovlar mavjud bo‘lib, ushbu tushunchani o‘rganishga turli xil yondashuvlar, jumladan, strukturaviy-lingvistik, sotsiolingvistik, lingvomadaniy, pragmalingvistik yondashuvlar qo‘llanishi mumkin [16]. Shunday qilib, diskurs, nutq, til, kognitiv, ijtimoiy va psixologik jihatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p omilli, ko‘p darajali hodisadir [17].

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda diskurs tuzilishini tushunishning yagona yondashuvi mavjud emas. L.Baxman nutqni hosil qilishning atributiv xususiyatlarini – kogerentlik (mantiqiylik) va bog‘liqlik (kogeziya)ni ajratib ko‘rsatadi [17]. Kogeziya deganda diskursning formal-gramatik bog‘liqligi tushuniladi; kogerentlik esa diskurs mazmunining tematik, semantik, funksional bog‘liqligini nazarda tutadi.

Diskurs tuzilishida propozitsiya, eksplikatura, referensiya, implikatura, presuppozitsiya va relevantlik kabi xususiyatlar ajratib ko‘rsatiladi [17].

V.I.Karasik diskursning statusli-rolli, situativ-kommunikativ xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi, ular esa o‘z ichiga muloqot sharoitlarini, sohasini, maqsadlarni, motivlarni, kommunikativ aktlarni amalga oshirish strategiyalarini, janr va uslubiy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Olim kommunikativ strategiyalar diskursning ajralmas qismi sifatida qaralishini ta’kidlagani alohida ahamiyatga molikdir.

Bundan tashqari, tilshunos statusga yo‘naltirilgan yoki institutsional va shaxsga yo‘naltirilgan diskurs turlarini ajratib ko‘rsatadi. Birinchisi faoliyat sohasiga muvofiq kommunikatsiya xarakterini belgilaydi; ikkinchisi maishiy, kundalik muloqotda, badiiy adabiyotda ustuvor bo‘ladi [18]. Biz amalga oshirayotgan tadqiqot doirasida tibbiy, ya’ni institutsional tipdagi diskurs alohida qiziqish uyg‘otadi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda diskurs kategoriyasini tushunishga ko‘plab yondashuvlarni umumlashtirib, quyidagi ta’rifni shakllantirish mumkin: diskurs bu ikki tomonlama jarayon bo‘lib, unda pragmatik funksiyani amalga oshirish maqsadida so‘zlovchi tilning leksik, grammatik, sintaktik, uslubiy, janrli, ijtimoiy-madaniy me’yorlariga muvofiq ravishda, ruhiy va hissiy omillarni yuqori darajada hisobga olgan holda, kogeziya, kogerentlik vositalarini qo‘llash orqali axborotni kodlashni amalga oshiradi; qabul qiluvchi nuqtayi nazaridan esa diskurs bu pragmatik funksiyani amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladigan tilning leksik, grammatik, sintaktik, uslubiy, janrli, ijtimoiy-madaniy me’yorlariga muvofiq ravishda, ruhiy va hissiy omillarni yuqori darajada hisobga olgan holda, kogeziya, kogerentlik vositalarini qo‘llagan holda diskursiv axborotni interpretatsiya (talqin) qilish jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Сост. С.Г.Бочаров, примеч. С.С.Аверинцева и С.Г. Бочарова. М., “Искусство”, 1979, с. 424; с. 281.

(2). Лихачев Д.С. Текстология. СПб., 2001, с. 758; с. 32.

(3). Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Учеб. пособие для ин-тов и фактов иностр. яз., М., “Высш. шк.”, 1990, с. 152; с. 56.

(4). Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. М., “Просвещение”, 1969, с. 124; с. 112.
(5). Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М., “Наука”, 1981, с. 140; с. 14.
(6). Тураева З.Я. Лингвистика текста (текст: структура и семантика). Москва, “Просвещение”, 1986, с. 127; с. 11.
(7). Акаева Э.В. Коммуникативные стратегии профессионального медицинского дискурса. Автореф. дисс. канд. филол. наук, 10.02.01. Омск, 2007, с. 23; с. 6.
(8). Степанов Ю.С. Альтернативный мир. Дискурс. Факт и принцип причинности. Язык и наука конца XX века. М., “Наука”, 1995, с. 35–73; с. 44.
(9). Евстигнеева И.А. Методика развития дискурсивных умений студентов на основе современных информационных и коммуникационных технологий (английский язык, языковой вуз). Дисс. канд. пед. наук, Тамбов, 2013, с. 228; с. 27.
(10). Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В.Н.Ярцева, М., Сов. энциклопедия, 1990, с. 136–137.
(11). Крячкова А.П. Реализация стратегии дискредитации оппонента в политическом дискурсе Германии. Вестник МГИМО университета, 2015, № 3 (42), с. 157 – 160; с. 158.
(12). Пушкин А.А. Прагмалингвистические характеристики дискурса личности. Личностные аспекты языкового общения. Межвуз. Сб. научн. Тр. Калинин. КГУ, 1989, с. 45–53; с. 48.
(13). Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. М., 1990, с. 147 – 165; с. 147.
(14). Цурикова Л.В. Дискурсивные стратегии как объект когнитивно-прагматического анализа коммуникативной деятельности. Вопросы когнитивной лингвистики. 2007, № 4 (013), с. 98 – 108; с. 99.
(15). Цит. по Чиняева, В.В. Механизмы формирования и интерпретация имплицитных смыслов в различных типах коммуникативных высказываний. Дисс. канд. филол. наук, Санкт-Петербург, 2015, с.198; с. 127.
(16). Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Сб. науч. тр., Волгоград, “Перемена”, 2000, с. 5–20; с. 5 – 6.
(17). Евстигнеева И.А. Методика развития дискурсивных умений студентов на основе современных информационных и коммуникационных технологий (английский язык, языковой вуз). Дисс. канд. пед. наук, Тамбов, 2013, с. 228; с. 28.
(18). Карасик В.И. О типах дискурса. Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Сб. науч. тр., Волгоград, “Перемена”, 2000, с. 5–20; с. 5 – 6.

Uralov Azamat Begnarovich (Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent; azamaturalov06@gmail.com)

BA’ZI SINTETIK SHAKLLARNING HOSIL BO‘LISHIDA NOMUTANOSIBLIKLAR

Annotatsiya. *Maqolada ikki shaklning bir mazmunga birikishi shaklga nisbatan nomutanosiblikni ko‘rsatsa, ikki mazmunning bir mazmun ifodalab qolishi mazmunga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltirishi isbotlangan. Shuningdek, ikki so‘zning yonma-yon, yondosh kelishi natijasida ikkinchi so‘z o‘z ma’no-vazifasidan uzoqlashib qoladi, dastlab, ko‘makchi so‘zga, so‘ng esa qo‘shimchaga aylanadi. Natijada ikki so‘z va morfologik shakl o‘rtasida nomutanosiblikning yuzaga kelishi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *murakkab, sintetik, analitik va kengaygan shakllar, qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar, asos, nomutanosiblik (asimmetriya), birikuv, tarixiy taraqqiyot.*

О НЕСООТВЕТСТВИИ, ВОЗНИКАЮЩЕМ В РЕЗУЛЬТАТЕ ОБРАЗОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ СИНТЕТИЧЕСКИХ ФОРМ

Аннотация*. В статье доказывается, что соединение двух форм в одно содержание свидетельствует о дисбалансе по отношению к форме, тогда как соединение двух содержаний, выражающих одно содержание, создает дисбаланс по отношению к содержанию. Кроме того, в результате расположения двух слов рядом второе слово отрывается от своего значения и функции и сначала становится вспомогательным словом, а затем наречием. В результате было исследовано возникновение несоответствия между двумя словами и морфологическими формами.*

Ключевые слова: *сложные, синтетические, аналитические и развернутые формы, сложные, парные и повторяющиеся слова, основа, асимметрия, сочетание, историческое развитие.*

DISPARITIES IN THE FORMATION OF SOME SYNTHETIC FORMS

Annotation*. The article proves that the combination of two forms into one content shows disproportion with respect to form, while the expression of one content by two contents creates disproportion with respect to content. Also, as a result of the juxtaposition of two words, the second word becomes distant from its meaning-function and first becomes an auxiliary word, and then an adverb. As a result, the emergence of disproportion between two words and morphological form is studied.*